

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Nuridinov T. Q.

«Tarix» kafedrası dotsenti, PhD

Qo‘qon davlat universiteti

turdalinuridinov835@gmail.com

Haydaraliyev X. M.

«Gumanitar fanlar va tillar fakultet» talabasi

Qo‘qon davlat universiteti

xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

QO‘QON XONLIGI–XITOIY O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining Xitoy bilan o‘zaro diplomatik aloqalari alohida tadqiqot sifatida yoritilgan. Mavzuga oid masalalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy mulohazalarning o‘zaro qiyosiy tahlili asosida yoritilgan. Shu bilan birga, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar mazmun mohiyati xorijiy tadqiqotlar materiallariga tayanagan holda yoritishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Xitoy, Sin imperiyasi, uyg‘urlar, Erdanobiy, Rossiya imperiyasi, Sharqiy Turkiston, Muhammad Alixon, Jahongir Xo‘ja.

KIRISH

Qo‘qon xonligining xalqaro munosabatlar tarixi XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi tashqi siyosat masalalarini o‘rganishda muhim masalalardan hisoblanadi. Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining ayrim jihatlarini yorituvchi turli davrda yaratilgan tadqiqotlar materiallarini tarixiylik tamoyillari asosida tahlil qilish tarixshunoslikdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo xalqaro aloqalari tarixining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur masalaning tarixshunosligi Rossiya imperiyasi davri, sovet davri, mustaqillik yillari va zamonaviy xorijiy tadqiqotlar doirasida shakllangan. V.V. Velyaminov-Zernov, P.N. Nebolsin, A. Kun, V.V. Nalivkin, A.N. Kuropatkin, N.N. Petrovskiy, shuningdek R. Shou, Forsayt va Bellyu kabi mualliflarning asarlari Qo‘qon–Xitoy munosabatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Xitoylik mansabdor Yan Chen tomonidan jamlangan ma‘lumotlar esa XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning ko‘lami hamda elchilik almashinuvlarini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Tarixiy manbalar tahlili ikki davlat o‘rtasidagi elchiliklar, siyosiy yozishmalar va savdo-diplomatik aloqalar muntazam tus olganligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada Qo‘qon–Xitoy diplomatik munosabatlarining tarixshunoslikda yoritilishi tahlil qilinib, mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalardagi yondashuvlar baholanadi.

Qo‘qon hukmdori Erdonaxon 1759-yilda Erdona Xitoyga elchi tanlash maqsadida odamlarni mamlakatning turli hududlariga yuborib, eng jasur odamni topib kelishni buyuradi. Ma‘lum vaqt o‘tgach, xon huzuriga mamlakatning eng bo‘yi uzun odamini olib kelishadi. Erdonaxon mazkur shaxsni maxsus tayyorgarlikdan so‘ng Xitoyga yuboriladigan elchilik guruhiga qo‘shadi. Ikki oydan so‘ng Erdonaning “daroz” elchisi Pekinga yetib keladi. Xitoy aholisi bunday ulkan odamni ko‘rib hayrat bilan tikilardi. Imperator uni huzuriga chaqirib, qayerdan kelgani bilan qiziqadi. Qo‘qon elchisi Xitoy hukmdoriga Erdonabiyning maktubini topshirib, yurti Qo‘qon xonligi, hukmdori esa Erdona ekanligini aytadi. Imperator “Bo‘ying shunchalik uzunki, senga biroz qaragan odamning bo‘yni ham og‘rib ketadi”, deydi. Bunga javoban Qo‘qon elchisi “Aslida oilamizda yetti farzandmiz, men kenjasiman, akalarim mendan ham novcharoq. Bizning yurtdagilar hammasi shunday qaddi-qomatli va tetik bo‘ladi”, deya javob beradi. Shu voqea sabab, bu voqeaga qadar garchi Xitoy hukmdori saroyida Qo‘qon davlati, uning aholisi haqida muayyan bir tasavvur bo‘lmasa-da, imperator va saroy a‘yonlarini hayratga solgan elchi ularda katta taassurot qoldirdi [6, 88]. 1759-yilda amalga oshirilgan elchilik natijasida ikki davlat o‘rtasida iliq munosabatlar o‘rnatildi va Xitoy qo‘shini Qo‘qon hududiga bostirib kirishdan tiyildi. Ko‘rinadiki, Qo‘qon hukmdorlari xorijga yuboriladigan elchilarni tanlash masalasiga alohida ahamiyat qaratgan. Tanlangan elchilar jismonan sog‘lom, notiq, tashrif buyuradigan davlat tili va urf-odatlarini yaxshi bilishi, shuningdek, shu mamlakatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday holatga tayyor bo‘lishi kerak bo‘lgan. Yuqoridagilarning iloji bo‘lmagan taqdirda elchi bilan birga tarjimon, xabarchilar, qorovullar hamroh sifatida jo‘natilar edi. Ba‘zi hollarda elchilar savdo karvonlari bilan birgalikda yo‘lga chiqar yoki xonlikka kelgan ushbu davlat elchisi bilan birga yuborilardi [7, 95].

Sin imperiyasi 1759-yilda Sharqiy Turkistonni zabt etishi natijasida Qo‘qon xonligi sharqda Xitoyning chegaradosh davlatiga aylandi. Sharqiy Turkiston yerlari xitoyliklar tomonidan bosib olingach, mazkur hudud hukmdori yaqinlari Qo‘qon xonligi hududidan panohtopdilar. Xitoy hukumati ag‘darilgan hukmron sulola vakillari Sharqiy Turkiston yerlariga qaytmasligiga ikki o‘rtadagi munosabatlarning muhim masalalaridan biri sifatida qaradi. Buning evaziga esa Xitoy hukumati Qo‘qon xonligi tijorat vakillariga Sharqiy Turkiston bilan olib boriladigan savdo munosabatlarda bir qator imtiyozlar berdi. Xitoy imperatorining 1809-yilgi farmoni bilan Qo‘qon xonligidan Qoshg‘arga olib kelingan mollari bojxona to‘lovlaridan butunlay ozod etildi, kelgusida keltiriladigan mollardan esa bojlar ikki barobarga kamaytirildi [1, 75].

Xitoyliklar istibdodiga qarshi Sharqiy Turkiston hukmdorining o‘g‘li Jahongir Xo‘ja rahbarligida 1826–1827-yillarda qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qo‘zg‘olonchilarga yordam berish maqsadida Qo‘qon xoni Muhammad Alixon 1826-yilda Qashg‘arga qo‘shin yubordi, ammo tezda orqaga chekinishga majbur bo‘ldi. Jahongir Xo‘janing Sharqiy Turkistondagi hukmronligi 9 oy davom etdi va Xitoy armiyasi tomonidan bostirildi. Xitoy hukumati Qo‘qon xonligini Jahongir Xo‘ja qo‘zg‘oloniga yordam ko‘rsatishda ayblab, Sharqiy Turkistonda faoliyat olib borayotgan Qo‘qon xonligi savdogarlarini ta‘qib qila boshladi [2, 55]. Bunga

javoban Muhammad Alixon 1830-yilda Qashg'arga Jahongir Xo'janing ukasi Muhammad Yusufxo'ja boshchiligidagi qo'shinni yubordi. Ikki o'rtadagi munosabatlar keskinlashganligiga qaramasdan davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilmadi. Qo'qon xonligi va Xitoy o'rtasida elchilik aloqalari davom etdi. Qo'qon xonligi elchisi Olam Pochchoning elchilik faoliyatida Qo'qon xonligi bilan Xitoy o'rtasida 1832-yil 13-yanvarda tuzilgan shartnoma muhim ahamiyat kasb etadi. Olam Pochcho musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'onga qasam ichib, Qo'qon xoni Muhammad Alixon nomidan mazkur shartnomani imzoladi. Mazkur shartnoma tuzilishi bilan bog'liq jarayonlar bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilganligini ta'kidlash lozim.

Amerikalik mashhur sharqshunos va tarixchi Jozef Fletcher 1832 yilda tuzilgan Qo'qon-Xitoy shartnomasini Xitoy tarixidagi ilk "teng huquqli bo'lmagan shartnoma", deb ta'riflagan. Ushbu tadqiqotchi mazkur shartnomaning imzolanish sababini iqtisodiy va harbiy inqiroz, Xitoy hukumatining siyosiy chekinishi sifatida baholaydi [6].

Mazkur tadqiqotchi 1832-yilgi Pekin bitimining Qo'qon xonligi uchun imtiyozlari sifatida Qo'qonlik savdogarlar Oltishahar hududida boj to'lovlaridan butunlay ozod etilishi, Qashqar, Yorkend, Xo'tan, Oqsuda chet ellik va mahalliy musulmon savdogarlardan olinadigan bojxona soliqlarini yig'ish huquqi Qo'qon xonligi ixtiyoriga berilishi, xonligi Qashqariya shaharlarida o'z oqsoqollarini tayinlash huquqini olishi, musodara qilingan qo'qonlik savdogarlarning mulklari uchun katta miqdorda tovon to'lash, xonlik esa Sharqiy Turkistonda Xitoy hukumatiga qarshi qurolli harakatlarni qo'llab-quvvatlamaslik majburiyatini oldi.

Britaniyalik olim Lora Nyubi tadqiqotida yuqoridagi fikrlarga qat'iy qarshi chiqib, Xitoy hujjatlarida Qo'qonga imtiyoz yoki ekstraterritoriallik berilganini tasdiqlovchi dalillar yo'qligini dalil keltiradi. Oksford universiteti olimasi Lora Nyubi esa ikki davlat ixtiloflarining tub mohiyati faqat diniy qarama-qarshilikda emas, balki mintaqaviy savdo, siyosiy va demografik manfaatlar to'qnashuvida ekanligini ko'rsatib o'tgan [7]. Nyubi va boshqa zamonaviy tarixchilar Fletcher kabi mualliflarning imperiya va xonliklar o'rtasidagi munosabatlarni Yevropacha standartlar bilan emas, balki Markaziy Osiyoning o'sha davrdagi real siyosiy va madaniy manfaatlari asosida tushunish kerakligini ta'kidlashadi [6. 7]

Fletcherning arxiv hujjatlariga tayanib qilgan mehnati zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan tan olinsa-da, uning xulosalari bir tomonlama va Yevrosentrizmga moyil deb hisoblanadi.

XIX asr 40-yillaridan Qo'qon xonligiga nisbatan Xitoy, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi kabi qo'shni davlatlarning kuchayib borayotgan bosimi sharoitida Qo'qon xonligi moslashuvchan va amaliy jihatdan pragmatik diplomatik siyosat olib borishga harakat qildi. Bu borada xonlikning Xitoy bilan munosabatlarni hamkorlik va yashirin qarama-qarshilik davrlarini o'z ichiga oladi.

Dastlabki davrda Qo'qondan Xitoyga yuboriladigan elchilar orasida savdogarlarning ko'pligi minglar sulolasi vakillari ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlariga ahamiyat qaratdi. Keyinchalik Qo'qon hukmdorlari ko'plab savdogarlar davlat manfaatlaridan ko'ra o'z manfaatlarini ko'zlab, shaxsiy foyda ko'rishga harakat qilishini oldini olish maqsadida davlat mulozimlarini Xitoyga

elchi sifatida yuborish amaliyotini joriy qildi. Xitoyga yuboriladigan davlat elchilarining yuz tuzilishi, xulq-atvori va kiyim-kechagiga alohida e'tibor qaratilib, elchilar bo'yi uzun va ozg'in bo'lishi shart bo'lgan. Xitoyliklarning bo'yi past bo'lganligi sababli, elchilarning ulardan uzun bo'ylari bilan ajralib turishi muhim hisoblangan. Bu holat Qo'qon davlatining obro'sini oshirishi, elchining tashqi ko'rinishi uning atrofdagilar uchun yorqin va e'tiborli bo'lishiga xizmat qilishi kerak edi [5, 79].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi va Xitoy o'rtasidagi diplomatik munosabatlar siyosiy hamda savdo-iqtisodiy manfaatlar asosida shakllanganligini ko'rsatadi. Qo'qon xonligi Xitoy bilan aloqalardan o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlash va mintaqadagi ta'sirini kuchaytirish vositasi sifatida foydalangan. Xonlik diplomatiyasiga moslashuvchanlik, manfaatlar muvozanatini saqlash va o'zgaruvchan xalqaro vaziyatga moslashish xos bo'lgan. Ayniqsa, 1832-yilgi Qo'qon–Xitoy tinchlik shartnomasi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning barqarorlashuvi hamda savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada Qo'qon xonligi uzoq vaqt davomida Xitoy bilan barqaror munosabatlarni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бейсембиев Т.К. “Тарихи Шахрухи” о Восточном Туркестане // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана. XV–XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 162-174.
2. Кутлуков М. К истории экономических, политических и культурных связей народов Средней Азии и Китая (в древности и в период средневековья) // Научные работы и сообщения АН УзССР. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1961. Т. 4. – С. 340.
3. Кузнецов В.С. Цинская империя на рубежах Центральной Азии (вторая половина XVIII – первая половина XIX в.). – Новосибирск: Наука, 1983. –120 с.
4. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины / перевод с немецкого В.И. Ковалевского. – СПб., 1882. – 604 с.
5. Levi, Scott. C. The rise and Khoqand Central Asia in the Global Age. 1709-1876. University of Pittsburg Press. 2017. – 258с.
6. Joseph Fletcher. Ching Inner Asia c. 1800 // The Cambridge History of China. Vol. 10. Cambridge: Cambridge University Press, 1978.
7. Newby, Laura J. The Empire and the Khanate: A Political History of Qing Relations with Khoqand c.1760–1860. Leiden–Boston: Brill, 2005. – 297 p.

Нуридинов Т. К.

PhD., доцент кафедры «История»

Кокандский государственный университет

turdalinuridinov835@gmail.com

Хайдаралиев Х. М.

Студент факультета «Гуманитарных наук и языков»

Кокандский государственный университет

xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ КОКАНДСКОМ ХАНСТВОМ И КИТАЕМ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье дипломатические отношения между Кокандским ханством и Китаем рассматриваются в качестве самостоятельного предмета исследования. Вопросы, связанные с данной темой, анализируются на основе сравнительного анализа научных аргументов, выдвинутых зарубежными исследователями. При этом была предпринята попытка пролить свет на сущность отношений между двумя государствами, опираясь на материалы зарубежных исследований.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Китай, империя Цин, уйгуры, Эрданобий, Российская империя, Восточный Туркестан, Мухаммад Али-хан, Джахангир Ходжа.

Nuriddinov T. Q.

PhD., associate professor at the department of «History»

Kokand State University

turdalinuridinov835@gmail.com

Khaidaraliev Kh. M.

Student at the Faculty of Humanities and Languages

Kokand State University

xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE KOKAND KHANATE AND CHINA AS INTERPRETED BY FOREIGN RESEARCHERS

ABSTRACT

This article presents the diplomatic relations between the Kokand Khanate and China as a separate study. The issues related to the topic are examined based on a comparative analysis of the scientific arguments put forward by foreign researchers. At the same time, an effort was made to shed light on the substantive nature of the relations between the two states, relying on materials from foreign research.

Keywords: Kokand Khanate, China, Qing Empire, Uyghurs, Erdanobi, Russian Empire, Eastern Turkestan, Muhammad Ali Khan, Jahangir Khoja.